Materiallar to'plami · Conference Proceedings
"ZAMONAVIY TADQIQOTLAR VA BARQAROR RIVOJLANISH" respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi
04 August 2026
UDK 004
IJTIMOIY-GUMANITAR FANLAR

RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA YOSHLAR DUNYOQARASHI VA KOGNITIV IMMUNITETINI SHAKLLANTIRISHNING SOTSIODINAMIK OMILLARI

Umida Muxammadjon qizi Qayumova*
Namangan davlat universiteti tayanch doktoranti
✉ qayumovaumida2404@gmail.com

ANNOTATSIYA

Ushbu maqola raqamli transformatsiya sharoitida yosh avlod (GenZ va Alfa) dunyoqarashi va sotsiomadaniy qonuniyatlarining shakllanishi ijtimoiy-falsafiy hamda sotsiologik jihatdan tahlil qilingan. Raqamli muhitning salbiy oqibatlari sifatida yuzaga kelayotgan kognitiv passivlik, raqamli chalg'ish va real kommunikatsiyalarning pasayishi hamda ijtimoiy izolatsiya muammolari M.Kastels va M.Prenski kabi olimlarning nazariy konsepsiyalari asosida muallfining sotsidinamik metodikasi taklif etilgan.

Kalit so'zlar

raqamli transformatsiya, raqamli passivlik, diqqat kapitali, sotsiodinamik metodika, jonli muloqot, refleksiv fikrlash, ijtimoiy izolatsiya, emperik tadqiqot.

DOI: 10.5281/zenodo.21743387

Kirish. Insoniyat taraqqiyotining ayni bosqichi ta'lim tizimining tubdan raqamli o'zgarishlari bilan xarakterlanadi. Ta'lim tizimining raqamli o'zgarishlarga duch kelishini ijtimoiy-falsafiy jihatdan, ya'ni raqamlashtirish jarayoni shunchaki ta'lim maskanlarida texnik va pedagogik o'zgarishlarni emas, balki global miqyosda yangi sotsiomadaniy muhitni shakllantirish jarayoni sifatida o'rganilishi lozim. Bu muhitda shakllanayotgan yosh avlod (Gen Z va Alpa) o'zidan oldingi ajdodlariga qaraganda mutlaqo yangi ontologik va epistemologik qarashga ega bo'lmoqda. Shu boisdan ham, raqamli muhitda yoshlar dunyoqarashi shakllanishining sotsiomadaniy qonuniyatlarini tadqiq etish bugungi kunning eng dolzarb falsafiy va sotsiologik muammolaridan biridir.

Ta'lim instituti sotsial institularning eng muhim bo'g'inlaridan biri bo'lib, shaxslarni nafaqat ongli rivojlanishida balki ularni jamiyatga moslashtirish, dunyoqarashini shakllantirish, til, madaniyat, fikrlash va milliy qadriyatlarni o'zlashtirishida ham muhim ahamiyat kasb etadi. Bugungi kunda ta'lim institutining raqamli o'zgarishlarni boshdan kechirishi bu jarayonlarga o'zini ta'sirini o'tkazmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan ilgari surilgan "Raqamli O'zbekiston –2030" strategiyasining ham bosh maqsadi ham ta'lim tizimini raqamlashtirish va yoshlarning kognitiv salohiyatini oshirish hamda mamlakatning raqamli rivojlanishini to'g'ri va samarali yo'lga qo'yishdan iboratdir[1]. Shu sababli, raqamli o'zgarishlarning ijtimoiy oqibatlari bugungi kunda nafaqat xorijda, balki mamlakatimizda ham turli tadqiqotlar olib borilmoqda.

Raqamli ta'limning nazariy asoslarini va raqamli savodxonlik kompetensiyalarini rivojlantirishda P.Gilster[2] va M.Prenskining[3] ilmiy ishlarida tahlil qilingan. Shunindek, raqamli rivojlanish, axborotlashuvning svilizatsion ahamiyati, tarmoq jamiyati va ijtimoiy munosabatlarning nazariy asoslarini M.Kastels[4], A.Giddens[5], A.D.Ursul[6] J. Bodriyar[7], shaxslararo kommunikativ inqirozni Y. Habermas[8] asarlarida chuqur yoritilgan.

Sotsiolog M. Kastelsning “Axborot asri: iqtisodiyot, jamiyat va madaniyat” nomli asarida, “raqamli makon an’anaviy ijtimoiy institutlar ta’sirni kamaytirib, yangi “tarmoqli madaniyat”ni yuzaga keltirishi haqida o’zini nazariyasidan bayon qilgan. Raqamli transformatsiya davri o’quvchilarning dunyoqarashi faqatgina milliy yoki hududiy sotsium ta’sirida emas, balki global raqamli tarmoqlar makonida shakllanmoqda”[4]. Demak, raqamli tranformatsiya sharoitida yoshlar dunyoqarashini to’g’ri shakllantirish, milliy qadriyatlar va tafakkurning yo’qolib ketishiga yo’l qo’ymaslik uchun raqamli muhitni ijtimoiy va falsafiy jihatdan optimallashtirish yangi ijtimoiy mexanizmlarni ishlab chiqish zarurati tug’iladi.

Ushbu maqolada raqamli muhitning sotsiomadaniy qonuniyatlarni amaliy jihatdan o’rganish maqsadida, umumta’lim maktablaridagi o’quv jarayonlarini ijtimoiy va falsafiy jihatdan kuzatuv hamda sotsiometrik eksperiment metodlari asosida tahlil qilindi. Tadqiqotning empirik asosini kichik tanlanma asosida 11-12 yosh oraligi’idagi (n=22) o’quvchilar guruhi tashkil qiladi. Tadqiqotda o’quvchilarning kognitiv faolligini o’lchash uchun “Hikoyani tugallash”, “Bahs-munozara” va “Mantiqiy-analitik fikrlash” interaktiv modellaridan foydalanildi.

Asosiy qism. Bugungi axborotlashgan jamiyatda nafaqat ta’lim oluvchi, balki ta’lim beruvchi shaxsning ham raqamli muhit , onlayn platformalari hamda sun’iy intellekt tizimlari bilan integratsiyalashuvi zamonaviy ijtimoiy borliqning ajralmas qismiga aylanib ulgurdi. Biroq, ushbu jadal texnologik transformatsiya jarayonida subyektlarning texnologiyaga qaramlik munosablarini bartaraf etish hamda virtual makon va real hayot o’rtasidagi ijtimoiy muvozanatni saqlash zarurati tobora ortib bormoqda.

Bugungi axborotlashgan jamiyat hamda raqamli muhitda “diqqat” eng muhim kapitalga aylanmoqda. Axborot oqimining haddan tashqari ko’pligi, ta’lim resurlari va global platformalarnining ochiqligi bugungi o’rganuvchi avlodga keng foydalnish imkoniyatini bersa-da, bilimni to’g’ri shakllantirishda qiyinchikkka duch kelmoqda. D. Ahmedjanova va I. Kerimova olib borgan tadqiqotiga ko’ra, talabalarning (n=418) onlayn ta’limda diqqat tarqoqligi va motivatsiya pasayishi (n=363)[9] aniqlagan. Bu esa bilvosita bugungi kunda maktablardagi birlamchi raqamli ijtimoiylashtirish jarayoniga bog’liq.

Agar yosh yosh avlodni ham maishiy hayotda, ham bevosita ta’lim tizimida faqatgina raqamli muhitda qoldirsak, ularda kognitiv o’zgarishlar, diqqat tarqoqligi, vaqtni boshqara olmaslik, va ijtimoiy yakkalanish kabi jiddiy sotsiomadaniy muammolar yuzaga keladi. Mahalliy olib borilgan tadqiqot ham shuni ko’rsatadiki, “raqamli ta’lim transformatsiyasining eng katta salbiy jihatlaridan biri –bu ta’lim oluvchining ijtimoiylashuvi inqirozi va ularning ijtimoiy yakkalanib qolishidir”[10].

Yuqorida ta’kidlagan muammo ya’ni tarmoqli madaniyat va virtual dunyoga bog’lanib qolish bugungi o’zbek jamiyatida ham yaqqol ko’zga tashlanmoqda. Shu sababli, hali maktab davridanoq o’quvchilarga raqamli muhitda mustaqil, kognitiv xavfsiz ishlashni hamda tarqoq diqqatni tizimli jamlash ko’nikmalarini o’rgatish zarurati namoyon bo’ladi.

Raqamli muhitda shakllanyotgan yosh avlodning diqqat balansi haqida M.Prenski o’qituvchilar o’rtasida bolalarning diqqati tarqoqligi haqidagi qarashlarni rad etadi. Olimning ta’kidlashicha, yosh avlodning raqamli platformalarda diqqati yo’qligi emas, balki ularning o’ziga qiziq bo’lmagan an’anaviy darslarda diqqat qilmaslikni ongli ravishda tanlashi isbotlangan[2]. Sababi raqamli muhitda shaxsda har bir harakatga zudlik bilan javob berish reaksiyasini olish ehtiyoji shakllangan. Buning oqibatida raqamli ta’lim muhitida shaxsning eng muhim aqliy xususiyati chuqur fikrlash (refleksiya) qobiliyati pasayib bormoqda.

Aynan mana shu ijtimoiy-falsafiy muammoning amaliy yechimi sifatida, dars darajonida o’quvchilarning raqamli passivligini singdirish, real borliqda ijtmoiy muvozanatni saqlash va ularda jonli muloqotni tiklash maqsad qilib olindi. Mazkur tadqiqot doirasida 11-12 yosh oralig’idagi o’quvchilarning (n=22) raqamli passivligini bartaraf etish hamda ularda jonli muloqot va refleksiv fikrlashni qayta tiklashga qaratilgan sotsiodinamik modellar “Hikoyani tugallash”, “Bahs-munozara” va “Mantiqiy-analitik fikrlashni baholash” testi sinovdan o’tkazildi. Sotsiometrik tahlil va monitoring natijasida olingan miqdoriy ko’rsatkichlar jadvalda keltirilgan.

“Jadval” I

Sotsiodinamik modellar qo’llanishidan oldingi va keying o’quvchilar ijtimoiy-kognitiv faolligining dinamikasi. (N=22)

Baholash mezonlari	Eksperimentgacha	Eksperimentdan keyin	O'zgarish dinamikasi, %
Raqamli passivlik va chalg'ish darajasi	14 ta o'quvchi	5 ta o'quvchi	40.9 %(kamaydi)
Jonli muloqotga kirishish faolligi	6 ta o'quvchi	16 ta	45.4%(ortdi)
Refleksiv va mantiqiy fikrlash darajasi	7 ta o'quvchi	17 ta	45.5%(ortdi)

O'tkazilgan sotsiometrik tahlil va monitoring shuni ko'rsatadiki, kichik tanlanma eksperiment doirasida qo'llanilgan modellar o'quvchilarning ijtimoiy-kognitiv faolligida chuqur ijobiy dinamikasini vujudga keltirdi. Xususan, jami sinaluvchilar (n=22) o'rtasida o'tkazilgan tadqiqot boshida dars jarajonida telefonlarni topshirish va passivlik darajasi 40.9% ga kamaygan bo'lsa, real muloqot faolligi hamda jonli muloqotga kirishish darjasi mos ravishda 45.4% va 45.5% ga oshganligini ko'rish mumkin. Bu esa o'z navbatida raqamli muhit keltirib chiqarayotgan ijtimoiy izolatsiya sharoitida shaxslararo muloqotni yaxshilash imkoniyatini ko'rsatadi.

"Hikoyani tugallash" metodi raqamli muhitda tayyor yaratilgan darslik, video o'yinlarni passiv qabul qilishni rad etib, real muhitda fikrash, tasavvur qilish orqali chuqur fikrlashga ta'sir qiladi. Virtual signallarni esa "Bahs-munozara" metodi orqali sinfxonaga ko'chishini ko'rish mumkin. Bahs paytida o'quvchi o'z fikrini bildirish uchun real vaqt rejimida mas'ulyati his qiladi va muloqotga kirishadi. Aynan ushbu metodlar, olim M.Prenski nazariyasida keltirib o'tilgan raqamli passivlik va ongli chalg'ish hodisasini bartaraf etishda o'ziga xos kognitiv-kommunikativ signal vazifasini o'tadi.

Xulosa. Bu kabi yondashuvlar shuni ko'rsatadiki, raqamli qaramlik va bartaraf etish jamiyat uchun zarur mustaqil ishlash, diqqatni jalb qilish ko'nikmasi, ijtmoiy kapitalni qayta tiklash va shaxslararo ishonch tarmoqlarini qayta tiklashga xizmat qiladi.

Bugungi kunda maktabgacha ta'lim tizimidan tortib, universitetlargacha raqamli qurollardan foydalanilar ekan, ta'lim oluvchilarda subyektiv mustaqillikni uyg'otib borish davr talabidir. Axborot asrida yoshlarning o'z-o'zini boshqarish, ma'lumotlarni saralash, kommunikatsiyani yo'qotmaslik, til va milliy-madaniy qadriyatlarni to'g'ri o'zlashtirishi ta'lim tizimidagi metodologik modellarning moslashuvchanligiga bog'liq. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, raqamli avlodni "raqamli passivlik" holatidan olib chiqishning yo'li – ta'lim jarayoni muammoli topshiriqlar, jonli muloqot bahslari va refleksiv savol-javoblar orqali qayta modellashtirish hisoblanadi. Aynan shu kabi yondashuvlar jamiyatdagi raqamli passivlikni oldini olish va shaxs intellektual salohiyatinii barqaror rivojlanishini ta'minlashga undaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Rrezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi "O'zbekiston –2023" strategiyasi to'g'risida"gi PF-158-son Farmoni//Lex.uz. - URL: https://lex.uz/ru/docs/-6600413 (Murojaat sanasi 28.06.2

2. Gilster P. Digital literacy. New York (NY): Wiley; 1997.

3. Prensky, M. Digital natives, Digital immigrants// On the Horizon (MCB University Press).-2001, October.-Vol. 9 No.6. –P. 4.

4. Manuel Castells. The Information Age: Economy, Society and Culture, 3 vols - Vol. 1: The Rise of the Network Society . Oxford: Basil Blackwell 1996, 2nd ed. 2000. 594.

5. Гидденс Э. Ускользающий мир: как глобализация изменяет нашу жизнь / Пер. с англ. М.Л. Коробочкина. -М., 2004. -120 с.;

6. Урсул Т.А. Глобальные исследования и становление ноосферы черезу стойчивое развитие // -М.: Политика и Общество. - 2012. - № 4. -С. 114-125

7. Бодрийяр Ж. Симуляция и симулякры. – М, 2018. – 240 с.

8. Habermas, J. (1987). The theory of communicative action. Vol. 2: Lifeworld and system: A critique of functionalist reason. Boston, MA: Bacon Press.

9. D. Akhmedjanova. I.Kerimova. University students and teachers' experiences with distance education in uzbekistan. February. 2024. Journal of Eastern European and Central Asian Research (JEECAR) 11(1):156-175.

10. Usmonov, B. Higher Education in Uzbekistan: Transition to Digital Learning. Education Journal. 2024, Vol. 13, No. 2, pp. 53-58.